

**JADID ADABIYOTIDA AYOLLAR OBRAZI
(CHO'LPON ASARLARI ASOSIDA)**

*NamDU, Nilufar Ismoiljonova, magistratura
yo`nalishi, o`zbek adabiyotshunosligi, 1-kurs
magistranti*

Annotatsiya

Maqolada badiiy asarlarda ayol obrazini yoritish uslublari, milliy uyg`onish davri adabiyotida usha davrdagi ayollarning ayanchli taqdiri, odamlarning jaholat botqog`iga botganligi, odamlarning savodsizligi, ayollarga bo`lgan munosabat haqida yuritiladi.

Annotation

The article describes the methods of highlighting the image of women in the works of art, the sad fate of women in the literature of the national renaissance period, the ignorance of people, the illiteracy of people, and the attitude towards women.

Аннотация

В статье описаны способы освещения образа женщины в произведениях искусства, печальная судьба женщины в литературе периода национального Возрождения, невежество народа, безграмотность народа, отношение к женщинам.

Tayanch so`z va iboralar: obraz, jaholat, psixologik tasvir vositalari, hikoya, ramz, ma`rifatparvarlik.

Ключевые слова и фразы: образ, незнание, средства психологической репрезентации, сюжет, символ, просветление.

Keywords and expressions: image, ignorance, means of psychological representation, story, symbol, enlightenment.

Milliy uyg`onish davri adabiyoti, ya`ni ma`rifatparvarlik adabiyoti davri XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari adabiyotini o`z ichiga oladi.

Tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilmu ma`rifat va yuksak ma`naviyatga intilish hech qachon to`xtamaganini, xalqimiz dahosining o`lmas timsoli sifatida eng og`ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo`lib kelganini ko`rishimiz mumkin.

Masalan, chorizm mustamlakasi davrida ma`rifat g`oyasini baland ko`tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yorqin misol bo`la oladi. Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is`hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho`lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma`rifatparvar, fidoyi insonlarning o`z shaxsiy man`faati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati,

yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlarni avlodlar xotirasidan aslo o`chmaydi.

O`zbek adabiyotida ayollar obraziga murojaat qilish, ularning turfa qiyofalarini yaratish XX asrning dastlabki yillarida yaratilgan nasriy asarlarimizda ko`rina boshladi. Kumushbibi, Zaynab (O`tkan kunlar), Zebi (Kecha va Kunduz), Gulnor (Qutlug` qon), Ra`no, Nigorxonim (Mehrobdan chayon) Gavhar (Gavharoy), Unsin (Daxshat) kabi ayollarni keltirishimiz mumkin.

Turkistonda XIX asr oxirlarida jadidlar tomonidan ayollar o`rni va qadri masalasiga jiddiy e`tibor qaratildi. I.Gaspirinskiyning publitsistik maqolalarida jamiyatda ayollarning o`rni masalasi ijtimoiy muammo sifatida ko`rsatiladi. Gaspirinskiyning 1906 yilda “Olami nisvon” (Ayollar dunyosi) nomli jurnalni tashkil etishi, mazkur jurnalda qizi Shafiqaning muharrirlik qilishi ham jamiyatda xotin-qizlar rolini yanada kuchaytirish zaruratidan kelib chiqadi. Uning “Doru r-rohat” asarida ham Farida obrazi orqali o`tmishda ayollarga bo`lgan munosabat yoritilgan.

Ayollarning jamiyatda o`z o`rniga ega bo`lishi, ilm-ma`rifatli, ziyoli bo`lishini istagan ma`rifatparvar Mahmudxo`ja Behbudiy e`tirofiga ko`ra: “Ayol zotini chin ziynati bu hayo, iffat va iboni saqlagan holda bo`ladi”. Turkiston ayollarining aksariyati ilmdan, ma`rifatdan bebahra qolayotganidan qattiq qayg`urgan Behbudiyning “Taraqqiy etgan millatlarning onalari o`qitar ekan, biz avval onamizni o`qitub, anga til o`rgatmog`imiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur”, degan fikrlari jamiyatni ma`rifatli qilishga qaratilgan chaqiriq edi. Ma`rifatparvarlik davri nasrida ayollar obrazi ham keng yoritila boshlandi. Ko`proq ularning davrining ijtimoiy muammolari, jaholat, ilmsizlik qurbonlari sifatida tasvirlangan. Asarlarda yosh hali o`n gulidan bir guli ochilmagan yoshlarni o`z otasi tengi insonga kundosh qilib turmushga berish, xo`rlash kamsitish, ularni bilimsiz, omi sifatida tasvirlangan. Misol qilib, Cho`lponning “Kecha va kunduz” romanida Zebi, “Qor qo`ynida lola” hikoyasida Sharofatxon, “Gavharoy” hikoyasida Gavharoy Qutlug` qon romanida gulnor, O`tgan kunlar romanida Kumush kabi obrazlar o`z davrining jaholat qurboni bo`lishdi. Ularning taqdiriga hech kim bir jamiyat azosi e`tibor bermadi hatto o`zlari ham baxtlari uchun kurashmadi.

Cho`lponning “Qor qo`ynida lola”, “Nonushta”, “Novvoy qiz”, “Oydin kechalarda” kabi hikoyalarida ayol obrazi, o`zbek ayolining sabr-matonati, samimiyligi, soddaligi ochib berilgan.

Cho`lponning “Qor qo`ynida lola” deb nomlangan hikoyasi syujeti ham Kecha va kunduz romani syujetiga o`xshash, hikoyadagi endigina o`n sakkiz yoshga to`lgan Sharofatxon taqdiri ham Zebi taqdiriga o`xshash. Yoshgina Sharofatxon xuddi Zebi singari yosh, aqlli, iboli, hayoli bo`lishiga qaramay otasi ra`yiga qarshi bir so`z aytolmaydi, otasi ko`ziga tik boqolmaydi, otasiga men sizdan ham katta, yoshi ulug`

odamga turmushga chiqolmayman deyolmaydi, chunki o'sha davr sharoiti shunday edi.

Adib bu hikoyasi orqali o'sha davr tuzumi, sharoiti, ayollarni ozodligi, erkini ochib bermoqchi bo'lgan.

Endigina o'n yetti yoshga to'lgan, hali hayot neligini to'liq anglab yetmagan Sharofatxonning yoshi bir joyga borib qolgan cholga turmushga chiqishi bu-dahshat. Cho'lponning "Qor qo'ynida lola" hikoyasiga nazar tashlaylik. Hikoyasi sho'x beg'ubor qizlarning to'p o'yidan boshlangan. Hikoyadagi Sharofatxon va uning dugonalarining to'p o'ynashidan ularning beg'ubor hali murg'ak bola ekanligini, ularga taqdir qanday "sovg'a" tayyorlab qo'yganidan xabarlari yo'q o'z o'yinlarida davom etishadi. Asardagi bu joyiga e'tibor bering qizlarning o'ynayotgan to'plari suvga tushib ketdi, uni qizlar tutib olishdi, ammo Sharofatxon qizlarga qarab –"Baribir, qancha siqib quritmoqchi bo'lsak-da, ho'l to'p chiqmaydir, endi boshqa kimining to'pi bor?"(kitob sahifasi aytib o'tiladi). Qizlardan esa javob yo'q. Shu payt hammalarini hayron qoldirgan xabar keladi.

"O'la qolsun, Tilla, menga kuyov emas, Sharofatxonga sovchi kelibdir! -dedi. Qizlar bir-birlariga qarashib oldilar. Sharofatxon qip-qizil qizarib, turgan yerida qotib qolg'on edi". (usha kitob 287-bet). Qizlarning shodon kulgisi bir zumda hafagarchilikka o'zgardi. E'tibor bering ularning quvonciga sabab bo'lgan to'p suvga tushib ho'l bo'ldi va yaroqsiz bo'lib qoldi. Qizlarning boshqa hech birida boshqa to'p chiqmadi. Ularning o'yinlari nihoyasiga yetdi. Bu boshlanmaning berilishi ham Sharofatxonni taqdiriga bir ishora. Shundan so'ng Fazilat yuqoridagi shum xabarni olib keldi. O'yin bilan birgalikda ularning quvonchlari ham nihoyasiga yetdi. Endi biz Sharofatxon obraziga to'xtalsak ushbu xabarni eshitib "Sharofatxon qip-qizil qizarib, turgan yerida qotib qolg'on edi." Bu tasvir ham uning qizil tusga kirishi o'zbek ayollariga xos.

Ushbu hikoyada ayol eng avvalo ona, itoatg'oy rafiqa ekanligi tasvirlangan. Ayol ona sifatida birinchi navbatda har qanday shaoitda ham o'z farzandining baxt-u kamoli, istiqbolini o'ylaydi. Eshondan sovchilar kelganda "Endi eshon katta odam, men sovchilarga hali qizim yosh, endi 17 ga chiqdi, dedim. Shunday deb javob bera qolaymi?" (289-bet). Ko'ryapsizki, Qumribo'sh ham ona sifatida qizi ham rafiqa sifatida erining ruxsatisiz bir ish qilolmaydi. Eshonning roziligini eshitgach "Qumribo'sh kutilmagan bu gapdan oqardi, ko'kardi, suvratdek qotib devorga suyanib qoldi..." Bu mahzuna ayol nima qilsin bir tomondan yolg'izgina qizining taqdiriga achinsa, bir tomondan erining izmidan chiqolmaydi.

Hikoyaning "Qor qo'ynida lola" deb nomlanishi ham bekorga emas. Chunki Sharofatxon hali o'n gulidan bir guli ham ochilmagan misli bir chechak, uni gulga, ko'klamga mengzashimiz mumkin, biz bilamizki qish, qor kabilar insonni keksa davriga qiyoslanadi, lola hech qachon qish faslida ochilmaydi, u bahorning ilk

kunlarida ochiladi, eshonning nabirasi qatori bo'lgan yosh Sharofatxonga uylanishini xuddi qor qo'ynida ochilgan lolaga o'xshatishimiz mumkin.

Cho'lponning ayollar obrazini yaratgan yana bir hikoyasi "O'ktabr qizi". Bu hikoya o'ziga xosligi bilan boshqa hikoyalardan yoinki o'zbek nasrida yaratilgan barcha asarlardan alohida ajralib turadi. Cho'lpon hikoyada xalqning dardi-u iztiroblarini, g'am-tashvishlarini to'kib solmoq uchun bir o'zbek qizini sahnaga chiqardi. Hikoyani boshlanishiga e'tibor beraylik, "shovqin, g'alva, qiy-chuv bosildi. Parda ko'tarila boshlag'an edi" aynan bu tartibsizlik o'zbek qizining sahnaga chiqishi bilan bosildi. Yozuvchi qizga ta'rif beryapti "Ko'k qarg'a shoxidan uzun va tekis ko'ylak kiygan, uzun qirq kokil sochli yosh bir qiz chab qo'lida dutorni ushlag'an holda sahnaga chiqdi va sahnaning o'rtasida turib kelinchaklarning qayin onalarig'a bergan salomlari kabi tavozulik bir salom berdi." Aynan uzun ko'ylak, uzun qirq kokil, kelinlardek salom berishi haqiqiy o'zbek ayoliga xos. E'tibor bering qiz aynan nega ko'k libos kiygan holda tasvirlangan? Ko'k rang fojining, o'limning ramzi. Demak qiz bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan mudhish voqeaga ishora bor.

Qiz qarsaklar ostida sahnaning yuqori tomonida ustiga sher terisi po'stak yopilg'on supachaga kelib o'ltirdi. Dutorning qillari ustida uning barmoqlari shamol yumshoqligi bilan yugura boshlab, uning hali buzilmag'an qiz tovushi sahna va sahn mebellariga urulishib, suykalishib chopib yurg'on choqda minglarcha kishini o'z qo'ynig'a olg'on keng va uzun sahn go'r tinchligi, o'lim jimjitligiga yotqon edi...

Keng va uzun sahn- ramziy ma'noda bo'lib, bu yurtni anglatadi, o'lim jimjitligiga yotqon - tasavvur qiling yurt go'ristonga, o'lim jimjitligiga o'xshatilyapti. Yurt odamalari shunday beparvo, ma'rifatsiz, ilmsizki ular bir og'iz gapira olmaydilar. O'z erkinliklarini haq-huquqlarini talab qila olmaydi. Huddi o'lgan inson kabi jimjitlar. Ularni dardlarini kuylagan esa "Ul o'zi otasiz, onasiz, qavmi qarindoshisiz yetim bir o'zbek qizi edi." Uni xalqning o'z dardlarini o'ziga to'kib bermak uchun sahnaga chiqardilar. Aynan xalqni uyg'otish, ma'rifatli qilish uchun o'zbek ayoli obrazini tanlagan.

O'zbek qizining o'z og'zidan, o'z tili bilan to'kilgan o'zbek dardlari, uning dutorining ijrg'anuvchi tovushlari bilan birga o'zbek xalqining zang bosib kelayotqon dillariga shuncha yaxshi ta'sir qildi kim, zanglari sekin-sekin yuvilib, artilib borg'ondek bo'ldilar. Yozuvchi bu qizni shunchaki qiz deb ta'riflab qolmaydi. Yo'q u oddiy qiz emas, U eng jasur ayol To'maris, Nodira, Uvaysiylarning avlodi bo'lgan haqiqiy O'ZBEK QIZI. Xalq uni sevadi, ardoqlaydi, har kim uni o'z qiziday yaxshi ko'radi. U xalqning o'z qizi bo'lib qoladi. Unga "Vannaychaxon" deb ism qo'yishadi. Bu nom qari chollardan tortib, kichkin bolalarga qadar har yerda, har joyda har vaqt takrorlanadi. Xalqning rux ozuqaga muxtoj bo'lgan ko'ngli goh goh o'z qizi Vannaychaxonning ixcham barmoqlari bilan shirin tillaridan o'ziga ozuqa olar edi.

Mana biz yuqorida aytgan mudhish voqeaga ham yetib keldik. Bir sovuq shamol keldi. Asarlarda shamol turli xil ramzlarni ifodalab keladi. Bu yerda esa sovuq shamol mudhish voqeaga ishora.

Ko`m-ko`k ko`ylakli tollar dog` tushib sarg`ayib qolg`on ko`ylaklarini yirib parchalab tuproqlar orasig`a ko`mdilar-da o`zlari yap-yalang`och, quruq gavda bilan qoldilar.

Yiroqlardan qarg`alarning mudhish nag`malari, shodlik kuylari eshitildi.

Borib ko`rdilar:

Paxta kabi oppoq tan, ko`k qarg`a shoxidan ko`ylak- qonga belangan.

Bosh tandan ayrilg`on holda, qon surkalgan qora sochlar ustiga yopilg`on.

Go`zal qora ko`zlar Jahannam chuqulig`ig`a botqonlar

Yuzdagi nurlar yiroq o`lkalarni eslab uchib ketgan qushlar bilan birga ketganlar.

Xalqning orzu, umidi, ishonchi yuzdagu nur qush kabi uchib ketdi.

Vannaychaxon eri (o`z yaqin kishisi) tomonidan yaxshiyarlarcha o`ldirildi.

Vannaycha milyo`n sonliq o`zbek xotun-qizlar o`rdusining yolg`iz birgina osiyasi, birgina bog`iyasi edi.

Vannaycha turmushga, qullar, cho`rilar turmushiga isyon qilg`on, kishanlarini yumshoq qo`li bilan uzgan, parchalog`on bir o`zbek qizi edi.

Xulosa qilib aytganda, Vannaycha- erkinlikka intilguchi bir o`zbek qizi.

Vannaycha- Turkistonda O`ktabr tomonidan ozod qilingom an`analar quli.

Vannaycha-sodda bir osiya.

U – fransuz huquq insoni (feminism)ning timsoli mujassamasi Juzanna Volantin emas...

Unda Juzanna Volantinning yuksak falsafiy, ilmiy qarashlari yo`q.

U Juzanna Volantin kabi oila turmushiga, er-xotun bo`lib turmush qurishga qarshi qo`zg`olgan emas.

O`z fransuz muxarrirasi Marsel Tinder o`ylog`oncha jahoniy alamlar bilan qayg`irgan qiz emasdir.

U faqat Turkiston qullug`iga, musulmon an`anasining behuda taassubiga Qurbon bo`lgon bir o`zbek qizidir...

Bu hikoya qahramoni jabr-zulm, qabohat, zarolat, jaholatga qarshi, qullikka qarshi bosh ko`targan birinchi o`zbek ayolidir. Xalqni uyqudan, jaholatdan uyg`otishga, ilm-ma`rifatga chaqirgan, xalqni dardlarini kuylagan, zanglab qolgan dillarni aritgan birinchi o`zbek qizidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlar II jild “Mehrobdan chayon”. Toshkent.: Info Capital Group.
2. Xabibulla Qodiriy. Otam haqida. Toshkent. G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1983-yil.
3. Мирзаев И. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 1975

4. Qo`shjonov M. O`zbekning o`zligi. Toshkent.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994-yil 78-bet
5. B. Karimov Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. Toshkent: Fan nashriyoti 2006-yil.
6. Eden Naby. Transitional central Asian Literature: Tajik and o`zbek prose fiction from 1909 to 1932. Columbio university 1975.
7. Бехбудий М. Саёҳат хотиралари /Танланган асарлар. – Тошкент: – Б.139.
8. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 2000.– Б.140.
9. Usmonova S. Co`lpon va Qodiriy ijodida ayol siymosi.//Til.Adabiyot.Ta`lim.- Samarqand:2020.75-son 29-bet.
- 10.Qosimov B. Milliy uyg`onish davri adabiyoti. Toshkent. “Ma`naviyat” 2004.
- 11.Isomiddinov Z. Ikki ayol. Tafakkur. 1994. 4-son 47-bet